

19<sup>th</sup> JANUARY

2024



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

# BELARUS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
RESEARCH CONFERENCE

[info.interonconf@mail.ru](mailto:info.interonconf@mail.ru)

2024

[www.interonconf.org](http://www.interonconf.org)



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



**BELARUS** International scientific-online conference  
**"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE"**

**Part 20**

**January 19<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

MINSK-2024



INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (20<sup>th</sup> January, 2024) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2024. Part 20 – 166p.

**Chief editor:**

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

**Editorial board:**

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, belarus казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE". Which took place in MINSK on January 20<sup>th</sup>, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024  
© Authors, 2024



<i>BO'LGAN E'TIBOR</i>	
<b>Абдуганиева Севара Абдухамидовна</b> <i>РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ҚУЎЛАШ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ КОМПЬЮТЕРЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ</i>	136
<b>Turdiyeva Dilnavoz Ramazonovna</b> <i>AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JAMIYATDAGI O'RNI</i>	142
<b>Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi</b> <i>DIVIDEND SIYOSATINI TO'G'RI TANLASH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI YANADA RIVOJLANTRISH</i>	147
<b>Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi</b> <i>DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</i>	150
<b>Xolmirzayeva Gulbahor Mutalibovna</b> <i>MATEMATIKA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK</i>	153
<b>Abdullayeva Xurshida Shoqosim qizi</b> <i>MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	156
<b>Tursunov Mirzo Mahmudovich</b> <b>Egamova Shahnoza Asrorovna</b> <i>INGLIZ TILIDA "HAYOT" VA "O'LIM" KONSEPTLARINING INING FRAZELOGIK BIRLIKLAR ORQALI IFODALANISH USULLARI</i>	161
<b>Axmedova Sarvinoz Hikmatovn</b> <b>Rakhimova Nargiza Baxshillayevna</b> <i>INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATLARIDAGI STEREOTIPLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	164



## INGLIZ TILIDA "HAYOT" VA "O'LIM" KONSEPTLARINING INING FRAZELOGIK BIRLIKLAR ORQALI IFODALANISH USULLARI

Tursunov Mirzo Mahmudovich

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Egamova Shahnoza Asrorovna

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu tezısdı "hayot" va "o'lim" konseptlarining ingliz tilida ifodalanish usullari tahlil qilingan bo'lib, shuningdek, kognitiv tilshunoslikning muhim masalasi bo'lgan konsept tushunchasi ham yoritib berilgan va atama haqidagi yetakchi tilshunos olimlarning mulohazalari keltirilgan. Shu bilan bir qatorda "hayot" va "o'lim" konseptini ingliz tilida kengroq yoritib berishga xizmat qiluvchi iboralardan ham namunalar va misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, konsept, logik-psixologik kategoriya, mentalitet, fraza, efimizm.

**Аннотация:** В данной тезисе анализируются способы выражения концептов «жизнь» и «смерть» в английском языке, а также выделяется концепт-концепт, который является важным вопросом когнитивной лингвистики, и представлены комментарии ведущих лингвистов по поводу этого термина. Кроме того, в английском языке приведены примеры и примеры выражений, служащих для объяснения понятий «жизнь» и «смерть».

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, концепт, логико-психологическая категория, менталитет, словосочетание, эфемизм.

**Annotation:** this thesis deals with the analysis of "life" and "death" concepts in the English language. It also defines the term of "concept" deeply. There are overlook into some linguistic researchers' opinions about this important issue in cognitive linguistics. Moreover, some phrases on "life" and "death" matters are analyzed with examples to reveal theoretical value of mentioned concept.

Psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning rivojlanishi tilshunoslikka bo'lgan qarashni tubdan o'zgartirdi va buning natijasida XX asr oxirlarida tilshunoslikning yangi tarmoqlaridan biri sifatida kognitiv tilshunoslik fani ham paydo bo'ladi. Kognitiv tilshunoslik tilni inson ongi bilan bog'liq tarzda o'rganadi, tilga inson fikrlarini aks ettirib beruvchi vosita sifatida qaraydi. Kognitiv fanda asosiy masalardan biri "konsept" atamasidir. Bu tushuncha tilshunoslikda tadqiqotchilari uchun tanish va tushunarli nazariya bo'lsada, kognitiv tilshunoslikdagi boshqa ko'plab masalalar kabi "kontsept" so'zining ham aniq va maqbul ta'rifi mavjud emas. Shunga qaramasdan, ko'plab olimlar bu tushunchani izohlash maqsadida o'zlarining ta'riflarini berishgan. Rus olimi Stepanovning fikricha, "Tushunchalar shunchaki iboralar, suhbat parchalaridir. Lekin bu iboralar bizning ongimizni go'ya bizga anchadan buyon tanish bo'lganday hisni beruvchi mazmun yaratishga undovchi qiladigan nozik iboralardir".<sup>29</sup> Boshqa bir tilshunos V.Evans "konsept-

1. Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации.-М.:Языки славянских культур, 2007.  
2. Evans V. 2009. How words mean. New York. OUP.



soʻz va qoʻshimcha lingvistik voqelik oʻrtasidagi vositachidir” deb taʼriflagan.<sup>30</sup> Evansning fikricha, kontsept tarkibidagi hissiy tasvir kognitiv anglash xususiyatlari bilan shakllanadi. Bu xususiyatlar biror tilda soʻzlashuvchining ongida paydo boʻlib, hissiy aʼzolar orqali kishi tasavvurida olamni gavdalantiradi.

Konsept nafaqat biror bir shaxsning fikrini aks ettiradi, balki ular ushbu tilda soʻzlashuvchi butun xalqning fikrlash tarzi, madaniyati, urf-odatlarini ham oʻzida mujassamlashtiradi. Yuqoridagi barcha taʼriflarga koʻradiki konsept insonlarning fikr va eʼtiqodlarini aks ettirish vositasi va u soʻzlovchining ongi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bundan tashqari, ular butun xalqning urf-odatlarini, tarixi, madaniyati va tafakkur tarzini ham oʻz ichiga oladi.

Ingliz tilida turli konseptlarni aniqroq yoritib berishda frazeologik birliklarning oʻrni beqiyos. Sababi ushbu tilda mavjud boʻlgan frazeologizmlar ingliz xalqining oʻtmishi, madaniyati, millatga xos boʻlgan milliy-madaniy xususiyati, anʼanalari, hayot tarzini aks ettiradi. Frazeologik birliklarning aksariyati insonning ichki va tashqi olami bilan bogʻliq faoliyati orqali shakllanadi. Shu sababdan ham bunday iboralar ifodalagan maʼnoning zamirida inson va uning feʼl-atvori, yashash tarzi, oʻy-fikrlari yotadi. Xalqning turmush tarziga aylangan oddiy ish harakatlar, marosimlar bilan bogʻliq boʻlgan urf-adtlar keyinchalik frazeologizmga aylanishi mumkin va u oʻzida toʻlaligicha shu millatning milliy madaniyati va turmush tarzini ifoda etadi.

Ingliz tilida “hayot” konseptini anglatuvchi quyidagi iboralarni uchratish mumkin:

1. Life begins at forty – “hayot qirq yoshdan boshlanadi” degan maʼnoni anglatuvchi ushbu ibora ingliz millatining yashash tarzi bilan bogʻliq boʻlib, inglizlar aynan shu yoshda oʻzlarini hayotga, turmush qurishga mukammal dajada tayyor deb hisoblashadi. Ularning fikricha, qirq yoshga toʻlgan odamda maroqli hayot kechirish uchun zarur boʻlgan koʻnikma, tajriba va vositalar mavjud boʻlsa, hayot yaxshilanadi.

“Today people in their fortieths are now able to get married, have children and prosper as the saying goes life begins at forty”.<sup>31</sup>

2. In the next life iborasi oʻlimdan keyingi hayot haqidagi diniy eʼtiqodlarni koʻrsatadi va inglizlar oʻlimdan keyin boshqa dunyoda boshqa hayotga ega boʻlishi mumkin deb oʻylashadi.

“ Each household may have left offerings for their ancestors to earn their goodwill or to sustain them in the next life”.<sup>32</sup>

3. A daughter is a daughter all of her life . Ushbu frazeologik birlikda ingliz xalqining qiz bolani oʻz ota-onasi, tugʻilib oʻsgan oilasiga nisbatan boʻlgan munosabati tasvirlangan. Ularning fikricha, qiz farzand turmushga chiqqandan soʻng ham keyin uning oʻzi oʻsgan oilasiga nisbatan ilgarigiday mehri, eʼtibori, gʻamxoʻrligi saqlanib qoladi, oʻgʻillar esa turmush qurgandan keyin oʻz oilalari haqida koʻproq qaygʻuradilar.

“ You will always be my little girl, Denise. A son is son until he takes a wife, a daughter is a daughter all her life.”<sup>33</sup>

<sup>30</sup> [www.wordsoach.com](http://www.wordsoach.com)

<sup>32</sup> [https://www.merriam-webster.com/dictionary/the next life](https://www.merriam-webster.com/dictionary/the%20next%20life)

<sup>33</sup> <https://idioms.thefreedictionary.com/life>



"O'lim" konseptiga to'xtaxaladigan bo'lsak, sir emaski, o'lim har doim insoniyatning asosiy tashvishlaridan biri hisoblangan. Dunyodagi aksariyat tillar singari, ingliz tilida ham o'lim boshqa tirik bo'lmaslik, mavjud bo'lmasli yoki yaqin odamidan juda bo'lish ma'nolarini anglatganligi sabab, bu holat qayg'uli, baxtsiz holat deb hisoblanadi. As baleful as death iborasi ham ingliz tilida ushbu tushunchaning noxush holat ekanligi va unga nisbatan umumiy qo'rquvni tushunishimiz mumkin.

"I wouldn't go out if I were you. That full moon is looking as baleful as death"<sup>34</sup>. Shu sababli ham ingliz tilida bu so'zning o'rniga "o'lim" konseptini ifoda etuvchi ko'plab evfemistik so'z va iboralardan foydalanadi. Misol uchun: to depart, to slip away, to lose one's life, to pass away and etc.

"His grandmother passed away last year".<sup>35</sup>

To enter eternal rest, to be called back to God, to called home, to join to one's ancestors birikmalarida ham ingliz millatiga xos diniy qarashlar mujassamlashgan bo'lib, ularda xalqning o'limdan keying haqiqiy, abadiy hayotning mavjudligi haqidagi g'oya ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, biz "kontsept" kognitiv tilshunoslikning asosiy masalasi sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, uning so'zlovchining fikrlari va e'tiqodlari bilan chuqur bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida "hayot" va "o'lim" konseptlarini to'laroq ifoda etishga xizmat qiluvchi frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular ushbu xalqning madaniyati, qarashlari, tarixi va urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации.-М.:Языки славянских культур, 2007.

2. Evans V. 2009. How words mean. New York. OUP.

3. [www.wordscoach.com](http://www.wordscoach.com)

4. [https://www.merriam-webster.com/dictionary/the next life](https://www.merriam-webster.com/dictionary/the%20next%20life)

5. <https://idioms.thefreedictionary.com/life>

6.

[https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en\\_US](https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en_US)

<sup>34</sup> <https://idioms.thefreedictionary.com/life>

<sup>35</sup> [https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en\\_US](https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en_US)